



## MOVAROUNNAXRDA SIYOSIY PAROKANDALIK VA SARBODORLAR HARAKATI.

**Normo'minov Samariddin Botira'li o'gli<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
E-mail: samariddin584@gmail.com

**Raxmatullayev Diyorbek O'ralovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
E-mail: raxmatullayevdiyorbek857@gmail.com

**Boboyev Faxriyor Baxtiyarovich<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
E-mail: fahrier625@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7421478>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> December 2022

Accepted: 05<sup>th</sup> December 2022

Online: 10<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Movarounnaxr, G'iyosiddin Xondamir, Xabib us siyar, Amirzoda Abdullo, Nizomiddin shomiy, sharqiy Turkiston, Yettisuv, chig'atoy ulusi, Tug'luq Temur, Sarbadorlar xarakati, Amir Temur, Amir Hoji Barlos, Amir Xusayn..*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Movarounnaxrdagi siyosiy tarqoqlik va viloyatlarning xukmronlikka intilishlari, o'rta asr muarrixlarining asarlarida kelgan ma'lumotlar, chig'atoy ulusi parchalanishi, mo'g'iliston davlati tashkil topishi, Tug'luq Temur va uning avlodlari tomonidan movarounnaxrga bostirib kirishi, va Ilyosxo'jaga qarshi sarbadorlar harakatining keng avj olishi, sarbadorlar tomonidan katta yer egalarining mol mulklari talon - taraj qilinishi Amir Temur va Amir Xusayn tomonidan Sarbadorlar xarakatining bostirilishi haqida tanishishingiz mumkin.*

14-asrning 50-60 yillarida Movarounnaxrda feodal tarqoqligi g'oyatta kuchayib, sinfiy kurash yanada keskinlashadi. O'lkadagi xar bir viloyat aloxida xukmronlikka ajralib, ular o'rtasida nizokuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Bu davrda o'lkada yagona uyushgandavlatning yo'qligi, uning siyosiy jihatdan maydalanib ketganini o'rta asr muarrixlaridan G'iyosiddin Xondamir <Xabib us-siyar> asarida quyidagicha tasvirlaydi: Amirzoda Abdullo Binni amir Qozag'on [xukmronlik yillari 1346-1358] vafotidan so'ng turkiston axvolidan xaraju-maraj [boshboshdoqlik] yo'l topib, xar shaharda mustaqil shohlikka intilishlar maydonga keladi. Xar kasabada bir uyatsiz davlat iqbol xavosi bilan qo'zg'olishga oyoq bosdi. Amir Bayon Sulduz samaraqandda ichkilik, ayshu-ishratga berildi. Amir Xoji Barlos Kesh shaxrida xukumat bayrog'ini ko'tardi. Amir Boyazid Jaloyir Xo'jandda davlat taxtiga o'tirdi. O'ljaytu Sulduz Balxda mamlakat xukmronligining visoliga ko'ngil bo'gladi. Muhammad xo'ja Yazdiy shibur'gonda o'zini hokimi mutlaq xayol qildi. Badaxshon shohi Ko'xistonda istiqloq kamarini beliga bo'glab, boshqalarga itoat qilishdan bosh tortdi. Amir Xusayn binni amir Milal binni amir Qozag'on va amir Xiziriy Yasuriy Xisori SHodmon chegaralariga chopqun yasab xarob qilar edi.

Nizomiddin Shomiyning so'ziga qaraganda, o'lkaga xonimlar o'rtasida doimo nizolar va galayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik,

o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, ulus aholisini, ayniqsa dehqonchilik xo'jaligini xonavayron qilgan edi. 14-asr o'rtalarida chig'atoy ulusi parchalanib, ulusning sharqiy qismi-SHarqiy Turkiston va Yettisuvda turk va mo'gul qabilalarini o'z ichiga olgan Mo'giliston feodal davlati tashkil topadi. 1348 yili Chig'atoy naslidan bo'lgan Tu'gluq Temur Mo'guluston xoni qilib ko'tariladi. Mo'guluston amirlari ulusning g'arbiy qismi Movarounnahrni xam bosib olishga xarakat qiladilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar. Mo'giliston amirlarining vayronagarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketadi. Mo'gullar istibdodi va zulmga qarshi xalq xarakati boshlanadi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, mo'gullar zulmiga qarshi xalq xarakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida jahon imperiyasini vujudga keltirgan sohibqiron Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamini qo'ymoqda edi. 1360 va 1361 yillarda chig'atoy xonalaridan bo'lgan Mo'giliston xoni Tu'gluq Temur Movarounnahrdagi ogir siyosiy vaziyatdan foydalanib, uni bo'ysintirishga xarakat qiladi. U hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo vohasiga bostirib kiradi. O'sha vaqtlarda Qashqadaryo viloyatining xokini Xoji Barlos, dushmanga qarshi kurashish o'rniga, Xurosonga qochadi va o'sha yerda o'ldiriladi. Temur amakisining viloyatini qo'ldan bermaslik maqsadida Tu'gluq Temur ishonchini qozonib, uning xizmatiga o'tadi va viloyatida xokim bo'lib tayinlanishiga muvaffaq bo'ladi.

Sarbadorlar harakati dastavval, 1337 yil erta bahorida Xuroson (hozirgi Av'gonistonning shimoli- g'arbi, Marv vohasi Eronning shimoli - sharqiy qismi) da boshlanadi. Sarbadorlar, maqsadga erishish uchun, ozodlik yo'lida dorga osilishi xam tayyormiz, degan shior ostida mo'gul bosqinchilariga qarshi kurash olib boradilar. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'gullar hukmronligini tor - mor qilib mustaqil Sarbadorlar davlati barpo etdilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shaxrida bo'lib, u 1337 yildan 1381 yilgacha, qariyb 35yil xukm suradi. Sarbadorlar asosan dehqonlar, xunarmandlar, shayxlar va qullardan iborat bo'lib, ular ichida ikki oqim mo'tadil o'ng qanot va mulkiy xamda ijtimoiy tenglik tarafdorlari bo'lmish so'l oqim mavjud edi. Ularning xukumati demokratik tartibda asosan qurilgan bo'lib, unda tabaqalar deyarli bir biridan farq qilmagan. Masalan, qullarga ozod etilmagan bo'lsa ham, ular boshqalar bilan bir qatorda sanalganlar. Sarbadorlar harakati 14 asrning 60 yillarida Movarounnahrdan mo'gul xonlarining xujumi tufayli kuchayib ketadi. Samarqand bunday xarakatning markaziga aylanadi. Qo'z'golonga madrasa talabasi Movlonzoda, paxta tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi va mergan Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'gullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Ilyosxo'ja dastlab Samarqandni keyin butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng Sarbadorlar ichki dushman katta yer egalariga qarshi kurash olib boradilar. Ularning ko'shk va uy - joylari vayron etilib, mol - mulklari talon - taroj qilinadi. Sarbadorlar boshliq Samarqandliklarning mo'gullar xoni Ilyosxo'ja ustidan g'alabasi to'g'risidagi xabar Xusayn bilan Temurga borib yetadi. Temur qishni Qarshida, Xusayn esa Amudaryo bo'yida o'tqazib, 1366 yil bahorida ular Sarbadorlar qo'z'golonini bostirish uchun Samarqandga yo'l oladilar. Ular Samarqand yaqinidagi Konegil mavzesida to'xtaydilar. Xar ikkala amir Sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanligini bildiradilar. Sarbadorlar amirlarini yaxshi niyatda ekanliklariga ishonadilar. Ularga izzat - xurmat ko'rsatadilar. Biroq ertasi kuni Sarbadorlarning boshliqlari Xusayn bilan Temur qarorgoxiga borganlarida, ular qatl etiladi. Faqat Movlonzoda Temurning

iltimosi bilan o'limdan saqlab qolinadi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, xarakat bostiriladi. Va Movarounnahrda Amir Xusaynning xukmronligi tiklanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulaxad Muxammadjonov – “Temur va temuriylar saltanati”. T.:1994.
2. G'. Xondamir - Xabib us siyar.
3. Nizomiddin SHomiy - “Zafarnoma”. T.:1996.
4. Azim Suyun – “Sarbadorlar”. T.:1994.
5. Normamatova, P., & Jumayev, A. (2021). FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH JARAYONI: O'ZGARISHLAR VA ISTIQBOLLAR. Academic research in educational sciences, 2(2), 956-962.
6. Normamatova, Pardaxol Ochildiyevna (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING YO'LGA QO'YILISHI (SURXON VOHASI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 871-876.
7. Abdirasulovich, B. M. (2022). HISTORY OF UZBEK TAKIYAS IN ISTANBUL AND ECONOMIC RELATIONS WITH THE OTTOMAN STATE. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 116-119.
8. Yakubova, D. (2022). SURXONDARYO TARIXI. LESSON PRESS.
9. Yakubova, D. (2021). Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг натижалари. Tafakkur Avlodi.
10. Диларам Тажиевна Ёкубова (2021). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ПАХТАДАН ЮҚОРИ ҲОСИЛ ОЛИШ АГРОТЕХНИКАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШДА М.С.ИСТОМИННИНГ ФАОЛИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (4), 1802-1810. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00801
11. Ёкубова, Д. Т. (2020). Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахтадан юқори ҳрсил олиш агротехникасининг ривожланишида м. с. истоминнинг фаолияти. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 120-123.
12. Ёкубова, Д. Т. (2020). Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахтадан юқори ҳрсил олиш агротехникасининг ривожланишида м. с. истоминнинг фаолияти. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 120-123.
13. Nazirov, B. (2020). Сурхондарё-полвонлар ва чопагонлар ватани. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕСТВЕННО-ГУМАНИТАРНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ПАНДЕМИИ COVID-19.
14. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спортнинг ривожланиш тарихи. СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР.
15. Nazirov, B. (2020). “IMOMUL HUDA–HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS.